

# **BO‘LAJAK TEXNOLOGIYA FANI O‘QITUVCHILARINI O‘QUVCHILAR TEXNIK IJODKORLIGI FAOLIYATIGA TAYYORLASH SAMARADORLIGINI OSHIRISH**

Ismoilov Tuychi Djabbarovich - p.f.n, Aliboyev Turg'un Chindaliyevich –  
A.Qodiriy nomidagi JDPI, Texnologik ta'lim kafedrasida katta o'qituvchilari

**Annotatsiya:** Maqolada bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarini o'quvchilar texnik ijodkorligi faoliyatiga tayyorlash samaradorligini oshirishni to'g'arak ishlari misolida bayon qilinadi.

**Kalitso'zlar:** To'g'arak, texnologiya, ijodkorlik, ixtirochilik, rahbarlik, metodik, avtomatik, element, robototexnika, qadam, yo'nalish.

**Аннотации:** В статье излагается подготовки будущих учителей технологического обучения к повышению творческой деятельности учащихся на примере кружковых работах.

**Ключевые слова:** Технологический, творчества, изобретения, руководство, методический, автоматический, элементарный, робототехника, шаг, направления.

**Abstracts:** The article describes the preparation of future teachers of technological education to increase the creative activity of students on the example of circle work.

**Keywords:** Technological, creativity, inventions, leadership, methodical, automatic, elementary, robotics, step, directions.

Mamlakatimizda xalq xo'jaligining turli sohalarida bo'lgani kabi ko'plab ishlab chiqarish korxonalarining tashkil etilishi va ishga tushurilishi ishchi kadrlarni tayyorlash tizimida ham katta o'zgarishlarni yuzaga keltirdi. Bugungi kunda nafaqat yuqori malakali kasb egalari, balki turli xil ishlab chiqarish masalalarining ijodiy echimini topa oladigan, ixtirochilik va ratsionalizatorlik qobiliyatiga ega bo'lgan kadrlarga bo'lgan ehtiyoj oshib bormoqda.

Umumiy o'rta va kasb-hunar ta'limi tizimida o'quvchilarni texnikaviy ijodkorlik faoliyatiga tayyorlashda texnologiya fani o'qituvchilari va ishlab chiqarish ustalari muhim o'rin tutadi. Ammo hozirgi vaqtda amaliyot o'quvchilarning texnikaviy ijodkorligini to'g'ri yo'lga qo'yish, rivojlantirish va shu jarayonga rahbarlik qilish bo'yicha o'qituvchilar metodik tayyorgarligining yetarli darajada emasligi kuzatilmoqda.

Shuning uchun mamlakatimizning qator oliy o'quv yurtlari texnologik ta'lim yo'nalishlari amaliy mashg'ulot jarayoni va darsdan tashqari to'g'arak ishlari

hamda mustaqil ta'limni yo'lga qo'yish vaqtida bo'lajak texnologik ta'limi fani o'qituvchilarini o'quvchilar texnik ijodkorligi faoliyatiga tayyorlash samaradorligini oshirishga e'tiborini yanada oshirish dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

Ushbu kamchiliklarni bartaraf etish va bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarini o'quvchilar texnik ijodkorlik faoliyatiga tayyorlash samarasini oshirish maqsadida darsdan tashqari to'garak mashg'ulotlari faoliyat ko'rsatadi.

To'garak rejasida to'garak a'zolari qobiliyatlariga qarab xalq xo'jaligining turli sohalarida foydalaniladigan kichik o'lchamli turli xil buyumlar, ko'rgazmali qurollar va harakatlanuvchi maketlar (har xil qoldiq chiqindi xom-ashyolardan) tayyorlash, avtomatika elementlari va robotlar yaratish kabi vazifalarni kiritish orqali o'z xohishiga qarab, iqtidorli va qobiliyatli talabalarning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish ko'zda tutilishi maqsadga muvofiqdir.

Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarini o'quvchilar texnik ijodkorlik faoliyatga tayyorlash samaradorligini oshirish maqsadida ularning texnik ijodkorlik yo'nalishida olgan bilim, ko'nikma va malakalarini oshirish hamda mustahkamlash, ijodkorlik ishlarini mustaqil ravishda rejalashtira olish ko'nikmalarini shakllantirish, maktab va kollejlarda o'tiladigan mashg'ulotlarni texnik ijodkorlik asosida tashkil etish va o'tkazish, amaliy ob'ektlar (maket, albom va b.)ga oid texnik hujjatlar va didaktik materiallar bilan oqilona jihozlash, turli xil metodik adabiyotlar va ilg'or pedagogik hamda innovatsion tajribalar, kompyuter texnikalaridagi zaruriy materiallardan oqilona foydalana olish kabi vazifalar xalq etiladi.

To'garak mashg'ulotlarida talabalarga berilishi mumkin bo'lgan ijodkorlik ob'ektlari bo'yicha yakka tartibdagi topshiriqlarni taxminan besh guruhga ajratib berilishini maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

1-guruh.Duradgorlik yo'nalishidagi topshiriqlar.

2-guruh.Elektrotexnika, radiotexnika, avtomatlashtirish elementlari va robotlar yaratish bo'yicha qurilmalar yasash.

3-guruh.Texnika va texnologiyalarni takomillashtirish (model, maket va natural qurilma).

4-guruh.Maishiy xizmat turlariga oid takomillashtirish jihozlarni tayyorlash;

5-guruh.O'quv-laboratoriya jihozlarini ishlab chiqish.

*Birinchi yo'nalish* bo'yicha chiqindi materiallardan yig'ma stul, yig'ma xontaxta, non saqlagich, yumshoq o'rindiqliq, taburetkalar, sandiqcha va hokazo...

*Ikkinchi yo'nalish* bo'yicha gaz plitalarida yong'in sodir bo'lganda ogohlantiruvchi qurilma (signalizator), har xil original tungi yoritkichlar, avtomatik harakatlanuvchi beshik, shamdon va hokozalar.

*Uchinchi yo'nalish* bo'yicha kichik o'lchamli kultivator, yer yumshatkich (motiga), shudgorning chuqurligini o'lchash qurilmasi va hokazo.

*To'rtinchi yo'nalish* bo'yicha oshxonalar jihozlari, universal ochgich (kalit), javon, guldon va hokazo.

*Beshinchi yo'nalish* bo'yicha materiallar qarshiligi, mehnat ta'limi (qo'lda yasalgan burchak o'lchagichlar, kinetik va potensial energiyani namoyish qilish qurilmasi va b.).

To'garak ishlarini yo'lga qo'yishda belgilangan topshiriqlarni qadamba-qadam amalga oshirish ko'zda tutiladi:

*I qadam* - istiqbolli reja tuziladi; ijodkorlik ob'ektlariga bo'lgan talablar ishlab chiqiladi; axborot ta'minoti beriladi; istiqbolli reja asosida to'garak a'zolari yakka tartibdagi topshiriqlar bilan ta'minlanadi.

*II qadam* - amaliy topshiriqlarning bajarilishi bo'yicha uslubiy tavsiyasi ishlab chiqiladi va to'garak a'zolariga tarqatiladi (tanishtiriladi); tavsiyanoma asosida to'garak a'zolari ijodkorlik masalalarida qo'yilgan topshiriqlarni bajarishga jalb etiladi.

*III qadam* - to'garak a'zolari ijodkorligi faol mutassil nazoratga olib boriladi, kuzatilgan kamchilik bartaraf etiladi va moddiy uslubiy shart-sharoitlar yaratib beriladi; olingan natijalar muhokama qilinadi va yakuniy xulosaga kelinadi; tayyorlangan qurilmalar o'quv va ishlab chiqarish jarayonlariga tatbiq etishga tavsiya qilinadi hamda keng jamoatchilikka (ixtiro, maqola, tavsiyanoma va x. ko'rinishlarda) taqdim etiladi; eng yaxshi ko'rsatkichlarga erishgan to'garak a'zolari (mualliflar) rag'batlantiriladi va har xil ko'rik tanlovlarda ishtirok etishlariga ko'maklashiladi.

Natijada o'quv ishlab chiqarish jarayonlariga tatbiq etiladi, sifatli bajarishga erishiladi, matbuotda chop etilib, ommalashtiriladi, kutilgan texnologiya fani o'qituvchisining ijodkorlik tayyorgarligi yuqori bo'ladi, ishga borgan joylarda o'zlarining ijodkorlik qobiliyatlari bilan yosh avlodni ijodkorlik ruhida tarbiyalashda muhim xissasini qo'shish imkoniyatiga ega bo'ladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sharipov Sh.S. Kasb ta'limi tizimida o'quvchilar ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirishning uzluksizligi. Toshkent. Fan. 2005.

2. Sharipov Sh.S., Muslimov N.A. Texnik ijodkorlik va dizayn. Toshkent 2007.

3. Davlatov K., Chichkov V. O'quvchilarni kasb tanlashga yo'llash Toshkent. O'qituvchi. 1978.

4. Ismoilov T.J. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini ijodkorlik faoliyatiga tayyorlash // "Uzluksiz ta'lim" jurnali. 2008. №3, Toshkent. B.100-103.

5. Ismoilov T.J., Tog'ayev X. Talabalar ilmiy tadqiqot ishlari istiqbolli integratsiyasi – ta'lim samaradorligini oshirishning muhim omilidir // "Ta'lim

jarayoniga innovatsion texnologiyalar va noan'anaviy usullarni joriy etish muammolari" Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi. Samarqand. 2012.

6. Исмаилов Т., и др. Подготовки студентов к творческой деятельности учащихся в сельских школ. // "Общество и экономика постсоветского пространства» Международный сборник научных статей. Российская Федерация. г.Липецк, 2014 г.